

DAVLAT INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR HAMDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

“Loyihalar va xaridlar samaradorligini
oshirish markazi” DM bosh mutaxassisi PhD.

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish tizimining nazariy va amaliy asoslari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda rivojlangan davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida kompleks ekspertiza tizimini takomillashtirish, ekspertiza samaradorligini oshirish va xalqaro ilg'or yondashuvlarni milliy amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat investitsiya loyihalari, kompleks ekspertiza, loyihaoldi hujjatlari, davlat xaridlari, investitsiya samaradorligi, raqamlashtirish, benchmarking, Total Cost of Ownership (TCO), risklarni boshqarish, post-ekspertiza monitoringi..

Аннотация

В статье представлена сущность рисков, риски, возникающие в коммерческих В статье проведен сравнительный анализ теоретических и практических основ системы комплексной экспертизы государственных инвестиционных проектов, реализуемых реформ в Республике Узбекистан, а также зарубежного опыта. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на совершенствование системы комплексной экспертизы, повышение эффективности экспертной деятельности и внедрение передовых международных подходов в национальную практику.

Ключевые слова: Государственные инвестиционные проекты, комплексная экспертиза, предпроектная документация, государственные закупки, эффективность инвестиций, цифровизация, бенчмаркинг, совокупная стоимость владения (TCO), управление рисками, постэкспертный мониторинг.

Abstract

This article presents a comparative analysis of the theoretical and practical foundations of the comprehensive expertise system for public investment projects, the ongoing reforms in Uzbekistan, and international best practices. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the comprehensive expertise system, enhance the effectiveness of expert evaluation, and integrate advanced international approaches into national practice.

Keywords: Public investment projects, comprehensive expertise, pre-project documentation, public procurement, investment efficiency, digitalization, benchmarking, Total Cost of Ownership (TCO), risk management, post-expertise monitoring.

KIRISH

Mamlakatimizda davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish hamda investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori bilan davlat investitsiya loyiholari, davlat xaridlari hujjatlari hamda import kontraktlarini kompleks ekspertizadan o'tkazishning yagona tizimi joriy etilib, loyihaoldi hujjatlarining sifati va ekspertiza jarayonlarining shaffofligini ta'minlashning institutsional asoslari yaratildi[1].

Mazkur islohotlarning izchil davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-104-son qarori qabul qilinib, loyihaoldi va xarid hujjatlarini kompleks ekspertiza qilish tizimini transformatsiya qilish, ekspertiza muddatlarini qisqartirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, raqamlashtirish darajasini oshirish hamda davlat investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonlarining samaradorligini yanada kuchaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi[2].

Davlat investitsiya loyihalarining hajmi va murakkabligi ortib borayotgan sharoitda ekspertiza jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, loyiha qiymatini maqbullashtirish, risklarni baholash, investitsiya qarorlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarida samarali monitoringni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa kompleks ekspertiza tizimini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularni xorijiy tajriba bilan qiyoslash hamda amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat investitsiya loyihalarini samarali boshqarishda kompleks ekspertiza tizimi investitsiya qarorlarining asoslanganligini ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Mashhur loyiha boshqaruvi tadqiqotchisi Bent Flyvbjerg yirik investitsiya loyihalarida xarajatlarning oshib ketishi va kutilgan natijalarga erishilmasligining asosiy sababi loyiha tayyorlash bosqichidagi xatolar hamda mustaqil ekspertiza va sifat nazoratining yetarli emasligi bilan izohlanishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, loyiha muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning dastlabki baholash sifati va qaror qabul qilish jarayonining obyektivligiga bog'liq[3].

Jahon banki mutaxassislari investitsiya loyihalarini baholashda iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va institutsional omillarni kompleks tahlil qilish zarurligini qayd etadi. Ularning fikricha, loyihaoldi ekspertizasi nafaqat loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, balki loyiha risklarini baholash, amalga oshirish salohiyatini o'rganish hamda uzoq muddatli natijadorligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

OECD ekspertlari davlat investitsiyalarini boshqarishda sifatli ekspertiza tizimi samarali investitsiya siyosatining asosiy shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Tashkilot tavsiyalariga ko'ra, investitsiya loyihalarini tanlash jarayonida ex-ante baholash, uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarni aniqlash, risklarni oldindan

baholash hamda Value for Money tamoyilidan foydalanish investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[4].

Buyuk Britaniyaning HM Treasury Green Book metodologiyasi davlat investitsiya loyihalarini baholashning xalqaro e'tirof etilgan usullaridan biri hisoblanadi. Mazkur metodologiyada har bir loyiha bo'yicha xarajat-foyda tahlili, muqobil variantlarni baholash, loyiha risklarini aniqlash va davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini kompleks tahlil qilish asosiy mezon sifatida belgilangan[5]. Ushbu yondashuv ko'plab davlatlar tomonidan investitsiya loyihalarini baholash metodikasi sifatida qo'llanilmoqda.

Janubiy Koreyaning Public and Private Infrastructure Investment Management Center (PIMAC) tajribasida loyihaoldi ekspertizasi investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash, loyiha qiymatini mustaqil baholash, risklarni tahlil qilish va loyiha amalga oshirilgandan keyingi monitoring bilan uzviy bog'langan.[6].

Mamlakatimizda davlat investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori bilan mustahkamlandi. Mazkur qaror bilan loyihaoldi hujjatlari, davlat xaridlari hujjatlari hamda import kontraktlarini kompleks ekspertizadan o'tkazishning yagona tartibi joriy etildi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-104-son qarori bilan ekspertiza tizimini transformatsiya qilish, parallel ekspertiza, benchmarking, Total Cost of Ownership (TCO), loyiha institutlari reytingi va raqamlashtirish kabi zamonaviy mexanizmlarni joriy etish orqali tizimning samaradorligini oshirishning yangi bosqichi boshlandi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kompleks ekspertiza tizimi faqat hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoni emas, balki investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi, risklari va natijadorligini kompleks baholashga qaratilgan boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish, ekspertiza samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish hamda post-ekspertiza monitoring tizimini rivojlantirish mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy va analitik tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, umumlashtirish hamda qiyosiy-jadval usullaridan foydalanildi. Kompleks ekspertiza tizimining amaldagi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishda muallifning tahliliy yondashuvi va amaliy kuzatuvlari asosida xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat investitsiya loyihalari mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish

hamda aholi farovonligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmining yildan-yilga ortib borishi investitsiya qarorlarining puxta iqtisodiy, texnik va moliyaviy asoslangan bo'lishini taqozo etadi. Shu sababli loyihaoldi hujjatlari va davlat xaridlari hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazish tizimi davlat investitsiyalarini boshqarishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ekspertiza jarayonlarini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish hamda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, PQ-332-son qarori bilan kompleks ekspertizaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilib, loyihaoldi hujjatlari va davlat xaridlari bo'yicha yagona ekspertiza tizimi joriy etilgan bo'lsa, PQ-104-son qarori bilan mazkur tizimni transformatsiya qilish, raqamlashtirish, ekspertiza muddatlarini optimallashtirish, benchmarking, Total Cost of Ownership (TCO) va "yordamchi-maslahatchi" tamoyili kabi zamonaviy mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etishning yangi bosqichi boshlandi.

Biroq xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, kompleks ekspertiza tizimining samaradorligi faqat normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi bilan emas, balki loyiha natijadorligini baholash, risklarni boshqarish, post-ekspertiza monitoringini tashkil etish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng qo'llash bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish, mavjud mexanizmlarning afzalliklari va rivojlantirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy natijaviy yo'nalishini tashkil etadi.

Davlat investitsiya loyihalarini samarali boshqarish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan texnik, iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy risklarni dastlabki bosqichda aniqlash loyiha natijadorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan loyihaoldi tayyorgarligi sifati va ekspertiza jarayonlarining samaradorligiga bog'liq. Dastlabki bosqichda aniqlanmagan kamchiliklar loyiha qiymatining ortishi, amalga oshirish muddatlarining uzayishi hamda davlat mablag'laridan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda kompleks ekspertiza tizimi davlat investitsiyalarini boshqarishning ajralmas elementi sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda ham davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, loyihaoldi hujjatlari sifatini oshirish va davlat xaridlarini yanada shaffof tashkil etishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning huquqiy asoslari, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori bilan mustahkamlandi. Mazkur qaror davlat

investitsiya loyihalari, davlat xaridlari hujjatlari hamda import kontraktlarini kompleks ekspertizadan o'tkazishning yagona tashkiliy tizimini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi.

PQ-332-son qarorining asosiy maqsadi turli yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ekspertiza jarayonlarini yagona institutsional tizimga birlashtirish, ekspertiza sifati va shaffofligini oshirish hamda davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Mazkur qarorning amaliy ahamiyati shundaki, ekspertiza jarayonlarida hujjatlarning texnik va iqtisodiy asoslanganligi bilan bir qatorda, ularning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi ham kompleks tarzda baholanadigan bo'ldi. Bu esa loyiha qiymatini maqbullashtirish, asossiz xarajatlarning oldini olish hamda davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish uchun zarur institutsional sharoitlarni shakllantirdi. Shu bilan birga, PQ-332-son qarori keyingi islohotlar uchun mustahkam huquqiy poydevor vazifasini o'tadi.

Investitsiya loyihalari sonining ortishi, ularning texnologik murakkablashuvi va davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ekspertiza tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-104-son qarori qabul qilinib, kompleks ekspertiza tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi boshlab berildi. Mazkur qaror nafaqat amaldagi tizimni takomillashtirish, balki ekspertiza jarayonlarini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida transformatsiya qilishni nazarda tutadi.

PQ-104-son qarorining muhim jihatlaridan biri ekspertiza jarayonlarini faqat nazorat funksiyasi bilan cheklab qolmasdan, buyurtmachilar bilan hamkorlikka asoslangan «yordamchi-maslahatchi» tamoyilini joriy etganidadir. Mazkur yondashuv loyiha tashabbuskorlari bilan ekspertlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, hujjatlardagi kamchiliklarni loyiha amalga oshirilishidan oldin bartaraf etish hamda takroriy murojaatlar sonini kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada ekspertiza jarayonining sifati va tezkorligi sezilarli darajada oshadi.

Qarorda ekspertiza samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator zamonaviy mexanizmlar ham nazarda tutilgan. Jumladan, parallel ekspertiza, tezlashtirilgan ekspertiza, benchmarking, Total Cost of Ownership (TCO), loyiha institutlari reytingini yuritish, ekspertlar faoliyatini natijadorlik ko'rsatkichlari asosida baholash hamda ekspertiza jarayonlarini to'liq raqamlashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar belgilandi. Mazkur mexanizmlar davlat investitsiya loyihalarini baholashning xalqaro standartlariga yaqinlashish hamda ekspertiza natijadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, loyihaoldi tayyorgarligi va kompleks ekspertiza jarayonlarining sifatiga bog'liq. Shu bois xalqaro moliya institutlari hamda rivojlangan davlatlarda investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish faqat hujjatlarning normativ talablarga muvofiqligini tekshirish bilan cheklanmay, balki ularning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorligi, texnik

asoslanganligi, ekologik va ijtimoiy ta'siri hamda loyiha risklarini kompleks baholashni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi ex-ante, mid-term va ex-post baholash mexanizmlarining qo'llanilishi davlat investitsiyalarining natijadorligini oshirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Jahon bankining Investment Project Financing (IPF) tizimida loyiha tayyorlash bosqichi investitsiya jarayonining eng muhim elementi hisoblanadi. Mazkur tizimda loyiha konsepsiyasini ishlab chiqishdan boshlab texnik, iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va institutsional tahlillar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuningdek, loyiha amalga oshirilishi davomida texnik ko'mak, monitoring va natijalarni baholash mexanizmlari qo'llanilib, zarur hollarda loyiha parametrlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv investitsiya qarorlarining asoslanganligini ta'minlash bilan birga, loyiha risklarini kamaytirish va davlat mablag'laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) hamda Buyuk Britaniyaning HM Treasury Green Book metodologiyasida davlat investitsiya loyihalarini baholashning asosiy mezon sifatida «Value for Money» tamoyili qo'llaniladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, loyiha tanlashda faqat uning boshlang'ich qiymati emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy natijalari, ekspluatatsiya xarajatlari, muqobil variantlar, risklar hamda xarajat-foyda (Cost-Benefit Analysis) tahlili kompleks baholanadi. Natijada davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligi oshiriladi va iqtisodiy jihatdan eng maqbul investitsiya yechimlari tanlanadi.

Janubiy Koreyada faoliyat yurituvchi Public and Private Infrastructure Investment Management Center (PIMAC) davlat investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha eng ilg'or institutlardan biri hisoblanadi. Mazkur markaz yirik investitsiya loyihalari uchun dastlabki texnik-iqtisodiy baholash (Pre-Feasibility Study), mustaqil ekspertiza, loyiha qiymatini tekshirish, Value for Money tahlili hamda loyiha amalga oshirilgandan keyingi natijalarni monitoring qilish funksiyalarini bajaradi. PIMAC tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan avval ularni mustaqil va chuqur ekspertizadan o'tkazish iqtisodiy jihatdan samarasiz loyihalarni dastlabki bosqichdayoq aniqlash hamda davlat xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

1-jadval

O'zbekiston va xorijiy davlatlarda kompleks ekspertiza tizimining qiyosiy tahlili

T/r	Tahlil mezon	O'zbekiston (PQ-332, PQ-104)	Jahon banki (IPF)	OECD / Green Book	Janubiy Koreya (PIMAC)
1	Asosiy maqsad	Loyiha sifati va davlat mablag'laridan samarali foydalanish	Investitsiya samaradorligi	Value for Money	Davlat investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish
2	Ekspertiza bosqichi	Asosan loyihaoldi ekspertizasi	Loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlari	Ex-ante baholash	Pre-feasibility va feasibility
3	Baholash yo'nalishlari	Texnik, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy	Kompleks baholash	Cost-Benefit Analysis	Kompleks iqtisodiy tahlil

T/r	Tahlil mezonlari	O'zbekiston (PQ-332, PQ-104)	Jahon banki (IPF)	OECD / Green Book	Janubiy Koreya (PIMAC)
4	Risklarni baholash	Mavjud	Chuqur integratsiyalashgan	Strategik risk tahlili	Mustaqil risk ekspertizasi
5	Benchmarking	Joriy etilmoqda	Qo'llaniladi	Qo'llaniladi	Qo'llaniladi
6	TCO (Life-cycle cost)	Joriy etilmoqda	Life-cycle approach	Asosiy mezonlardan biri	Qo'llaniladi
7	Raqamlashtirish	expertcenter.uz platformasi	Digital Portfolio Monitoring	Digital Governance	Integrated PIM System
8	Post-monitoring	Rivojlantirilmoqda	Majburiy	Majburiy	Majburiy
9	Muallif bahosi	Transformatsiya bosqichida	Yetuk tizim	Yetuk tizim	Eng samarali modellardan biri

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kompleks ekspertiza tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashgan bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi monitoring, Value for Money va post-ekspertiza baholash mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Benchmarking, TCO va raqamlashtirish kabi zamonaviy instrumentlarning joriy etilishi milliy ekspertiza tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirmoqda.

2-jadval
Kompleks ekspertiza tizimini takomillashtirish

T/r	Aniqlangan muammo	Amaldagi holat	Xorijiy tajriba	Muallif taklifi	Kutilayotgan natija
1	Ekspertiza samaradorligini baholash metodikasi	Yagona KPI mavjud emas	OECD Performance Indicators	KPI va samaradorlik indeksini ishlab chiqish	Ekspertiza sifatini obyektiv baholash
2	Post-ekspertiza monitoringi	Cheklangan	World Bank, PIMAC	Loyiha yakuniy natijalarini monitoring qilish	Natijadorlikni oshirish
3	Riskga asoslangan ekspertiza	Boshlang'ich bosqich	Risk-Based Review	Risk reytingi asosida ekspertiza	Resurslardan samarali foydalanish
4	Benchmarking	Endigina joriy etilmoqda	Green Book, OECD	Milliy benchmark bazasini yaratish	Narxlarni maqbullashtirish
5	TCO mexanizmi	Boshlang'ich bosqich	Life Cycle Costing	TCO ni barcha yirik loyihalarda majburiy qo'llash	Ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish
6	Sun'iy intellekt	Qisman qo'llanilmoqda	AI Project Screening	AI asosida avtomatik ekspertiza moduli	Ekspertiza muddatlarini qisqartirish
7	Loyiha institutlari reytingi	Joriy etilmoqda	Contractor Performance Rating	Reytingni davlat xaridlari bilan integratsiya qilish	Loyihalar sifatini oshirish
8	Ochiq analitika	Cheklangan	Open Government Data	Ochiq ekspertiza statistikasi	Shaffoflikni oshirish

2-jadvalda kompleks ekspertiza tizimini rivojlantirish bo'yicha mavjud muammolar xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda huquqiy va institutsional islohotlar izchil amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ekspertiza samaradorligini ilmiy mezonlar asosida baholash, loyiha natijadorligini monitoring qilish, sun'iy intellektdan foydalanish hamda riskga asoslangan ekspertiza mexanizmlarini keng joriy etish istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar bo'lib qolmoqda.

Xorijiy tajriba tahlili rivojlangan davlatlarda kompleks ekspertiza tizimi loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanganligini ko'rsatmoqda. Mazkur tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda post-ekspertiza monitoringini institutsional darajada rivojlantirish, riskka asoslangan ekspertiza metodologiyasini takomillashtirish, samaradorlikni baholashning ilmiy mezonlarini ishlab chiqish hamda sun'iy intellekt va raqamli tahlil vositalaridan keng foydalanish tizimning xalqaro standartlarga yanada yaqinlashishiga xizmat qiladi. Natijada davlat investitsiya loyihalarini tanlash va amalga oshirish jarayonlarining shaffofligi, samaradorligi hamda iqtisodiy natijadorligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish tizimi davlat mablag'laridan samarali foydalanish, loyiha qiymatini maqbullashtirish hamda investitsiya qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar ekspertiza tizimining huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslarini sezilarli darajada takomillashtirdi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-332 va PQ-104-son qarorlari qiyosiy tahlil qilinib, ular kompleks ekspertiza tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishga xizmat qilayotganligi aniqlandi. Xususan, ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish, benchmarking, Total Cost of Ownership (TCO), «yordamchi-maslahatchi» tamoyili hamda loyiha institutlari reytingi kabi zamonaviy boshqaruv vositalarining joriy etilishi ekspertiza samaradorligini oshirish uchun muhim sharoit yaratmoqda.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda kompleks ekspertiza tizimi loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz boshqaruv mexanizmi sifatida shakllangan. Ayniqsa, loyihaoldi baholash, risklarni boshqarish, Value for Money, post-ekspertiza monitoringi hamda raqamli tahlil vositalaridan foydalanish investitsiya loyihalarining natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda kompleks ekspertiza tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ekspertiza samaradorligini baholashning ilmiy mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish, post-ekspertiza monitoringini institutsional asosda rivojlantirish hamda riskka asoslangan ekspertiza metodologiyasini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish orqali ekspertiza jarayonlarini avtomatlashtirish, milliy benchmarking bazasini

shakllantirish hamda loyiha qiymatini butun hayotiy sikl davomida baholashga asoslangan TCO mexanizmini amaliyotda keng qo'llash ekspertiza sifati va tezkorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi davlat investitsiya loyihalarini tayyorlash va baholash sifatini oshirish, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda O'zbekistonda kompleks ekspertiza tizimini xalqaro ilg'or standartlar darajasiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari davlat investitsiyalarini boshqarish va kompleks ekspertiza tizimini takomillashtirish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son "Davlat xaridlari va investitsiya loyihalarini bo'yicha kompleks ekspertiza tizimini tashkil etish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-6130749?otherlang=1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PQ-104-son "Loyihaoldi va xarid hujjatlarini kompleks ekspertiza qilish tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-8085321>
3. Bent Flyvbjerg. What You Should Know About Megaprojects, and Why: An Overview. Project Management Journal, 2014.
4. World Bank. Investment Project Financing (IPF).
5. HM Treasury. The Green Book: Appraisal and Evaluation in Central Government.
6. Public and Private Infrastructure Investment Management Center. Guidelines for Preliminary Feasibility Studies.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**